

Mustaqillik kuniga tadbir ssenariy

Sahnaga kirish yo‘laklari bezatilgan, karnay – surnay, doira sho‘x sadolari mehmonlarni bayramga chorlab turibdi. Ma’naviyat maydoni bayramona bezatilgan. O‘zbekiston Respublikasi bayrog‘i maydon to‘rida hilpirab turibdi. Sahna markaziga o‘rnatilgan so‘zana, O‘zbekiston gerbi e‘tiborni tortadi. Sahnaga boshlovchilar musiqa sadolari ostida chiqib kelishadi.

1-boshlovchi: Assalomu alaykum, aziz va mehribon ustozlar-u, hurmatli ota-onalar!

2-boshlovchi: Assalomu alaykum, sho‘x-shodon bolajonlar

1-boshlovchi: Xush kelibsiz, mehmonlar, assalom sizga

Tabarruk insonlar ming ta‘zim sizga

Qo‘llarim ko‘ksimda dildan ehtirom

Mo‘tabar murabbiy, sizga ming salom

2-boshlovchi: Assalom, mustaqil O‘zbekistonim!

Assalom, qudratli, nurli bo‘stonim

Erk va ozodlik muborak bo‘lsin!

Bizdek farzandlaring doim bor bo‘lsin!

Quyoshdek shu‘la sochgan,

Bilimga keng yo‘l ochgan,

Bizni erkalab quchgan

Hamma: Sizgadir ushbu kalom

Muallimlar assalom!

Kunday yorug‘ darsxona

Biz farzandmiz, siz – ona

Bo‘lib bizga parvona

Hamma: Dilda ardoqli kalom

Ona maktab assalom!

Tanitib yurt, jahonga,

Erk bergan har insonga

Qaytdik dinu iymonga

Hamma: Dilda ardoqli kalom

Mustaqil yurt assalom!

(O‘zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi yangraydi. Barcha qatnashchilar o‘rnilaridan turib jo‘rlikda, qo‘llari ko‘ksilarida madhiyani ijro etadilar)

Madhiya tugagandan so‘ng jo‘shqin musiqa sadolari ostida qorong‘ulik qa‘ridan bir qiz xumo qushi bo‘lib uchib chiqadi. Uning ortidan:

”Xumo qushi keldi, xumo qushi keldi” deb shovqin-suron bilan bir to‘p o‘g‘il-qizlar kirib kelishadi.

Xumo qushi sahna o‘rtasida to‘xtaydi. Bolalar yoy shaklida sahnada tizilib turadilar.

Xumo qushi: Qadrli bolalr Mustaqil O‘zbekistonning baxtli farzandlari! Hurmatli tadbir ishtirokchilari! Hammalaringizni eng ulug‘ va eng aziz bayramimiz-Mustaqilligimizning 29 yilligi bilan tabriklayman.

Mexroj: Xalqim, yurtim, boshingda humo

Uni asra, uchib ketmasin

Qora kuchlar border doimo

Toleingni zabun etmasin

Vatan, odimlaring qut-rivoj bo‘lsin

Istiqloling asra, boshda toj bo‘lsin!

1-boshlovchi: Bugun Mustaqilligimizning 29 yillik bayramini nishonlash uchun yig‘ilganmiz.

Bu bayramni tinch – totuv yashayotgan xalqimiz zo‘r xursandchilik bilan kutib olyapti.

2 – boshlovchi: — « Mustaqillik muborak jannatmakon diyorum» deb nomlangan tadbirimizga xush kelibsiz!

1 – boshlovchi: — Bolalar, Vatan deganda nimani tushunasiz?

1 – o‘quvchi: — Vatan bu kindik qonimiz to‘kilgan tuproq

2 – o'quvchi: — Vatan – bu beshigimiz, ko'chamiz, uyimiz, turar joyimiz!

3 – o'quvchi: — Vatan – bu muqaddas Ona tilimiz!

4 – o'quvchi: — Vatan – bu buyuk millatimiz

5 – o'quvchi — Vatan – bu maktabimiz!

6 – o'quvchi: — Vatan – bu ona tabiat in'om etgan barcha boyliklar va nozu ne'matlar!

2 – boshlovchi: — Mustaqillik deganda nimani tushunasiz?

7 – o'quvchi: — Mustaqillik — o'z erkiga ega bo'lish, Vatan o'zimizniki deganidir.

1 – boshlovchi: — Mustaqillik bizga nima berdi?

8 – o'quvchi: — Mustaqillik tufayli ma'naviy qadriyatlarimiz tiklandi

9 – o'quvchi: — Millatimizning o'zligini, milliy g'ururini himoya qilgan Fayzulla Xo'jayev, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosirlar xalqimizga qaytdi.

10 – o'quvchi: — Dinimiz, Qur'oni Karim, Hadisi Sharif kabi ma'naviy boyliklarimiz, Navro'z, Hayit bayramlarimiz, udumlarimiz, qadriyatlarimiz yana xalqimizga qaytdi.

Boshlovchilar:Mustaqillik bu nimadur?

— Mustaqillik – bu xurriyat

Bu – ozodlik demakdir.

Boshlovchilar:Mustaqillik bu nimadur?

— Bu – elu yurt osoyishi,

Bu obodlik demakdur.

Boshlovchilar:Mustaqillik bu nimadur?

— Mustaqillik eng ulug'u

Eng aziz baxtdir bizga.

Boshlovchilar:Mustaqillik bu nimadur?

— Sha'n shavkati bo'lsin baland,

Bu – abadlik demakdur.

Bayroq kirib keladi:Assalomu alaykum aziz bolajonlar. Men davlatimizning muqaddas bayrog'i bo'laman.Men 1991-yil 18-noyabrda qabul qilindim.

Sh'er:Havo rang,oq va yashil,

Bordir qizil belbog'i

Shuning uchun chiroyli,

O'zbekiston bayrog'i

Tamg'a kirib keladi:Assalomu alaykum aziz bolajonlar.Men davlatimizning muqaddas gerbi bo'laman. Men 1992-yil 2-iyulda qabul qilindim.

She'r:O'ng tomoni paxtazor,

So'l tomoni bug'doyzor

Bog'lari bor,tog'lari bor,

O'rtasida xumo qush

Konstitutsiya kitobi kirib keladi. Assalomu alaykum aziz bolajonlar.Men davlatimizning qomusi bo'laman.Men 1992-yil 8-dekabrda qabul qilindim

She'r: Baxtimiz qomusi erur bu xujjat,

Unda mujassamdir haq-huquqimiz.

Huquqni bilaylik, lekin avvalo,

Unutmaylik fuqarolik burchimiz.

2-boshlovchi:Bugun o'zbek xalqining asrlar osha orzusi bo'lib kelgan Mustaqillik kuni arafasida yig'ildik. Mana, salkam 29 yildirki, xalqimiz hur, ozod, erkin diyorda yashash zavqini surmoqda. Ushbu ulug' ayyom bilan tabriklash uchun go'zal tariximiz sahifalaridan ardoqli va buyuk siymolar ham tashrif buyurishgan.

1-boshlovchi:Marhamat,kutib oling

Amir Temur: Bolalarim, men har mamlakatda adolat eshigini ochdim, har mamlakatning yaxshi kishilariga ezguliklar qildim. Nafsi yomon, axloqsiz odamlarni mamlakat sarhadlaridan quvib chiqardim. "O'g'illarim millatning ulug' martabasini, oliy saodatini saqlamoq uchun adolat va ozodlik muqaddas dasturingiz bo'lsin"

Alisher Navoiy: Shohu toju hilqatiy kim

Men tamosho qilg'ali

O'zbekim boshida qalpoq

Ya'ni, men doppili o'zbekimga xuddi toj kiyib zarrin libosga o'ralgan shohga qaragandek quvonib tikilaman.

Alpomish va Barchinoy

Barchinoy:

O'zbek elining o'g'loni,

Alpomish avlodlari,

Ta'zim aylay sizlarga,

Bahodirlar sultoni.

Alpomish:

O'zbek qizi Barchinoy,

Go'zalligi hilol-oy.

Birga qo'shiq kuylaylik,

Yurtim ohanglarga boy.

1-Boshlovchi: Marhamat mehmonlar, bu yerga o'tiringlar.

2-Boshlovchi: Bolajonlar (bolalar sahnaga yugurib chiqadilar)

1-Boshlovchi: Bu bayram ajoyibotlarga boy sehlidir

Bolalar: Uning sehri nimada?

1-Boshlovchi: Bu bayramda ijodini namoyon etgan har bir bolajon o'z orzusiga yetar ekan.

Bolajonlar, sizning ham orzuyingiz bormi?

Bolalar: Albatta

1-Qiz:

Men-chi men katta bo'lsam,

Mohir chevar bo'laman.

O'zbekimning doppisini

Qoyil qilib tikaman.

2- Bola:

Sport bilan do'stlashib

Kuch – quvvatga to'laman

Kelajakda men jahon

Chempioni bo'laman

3- Qiz:

Raq s mening jon-u dilim,

O'ynab katta bo'laman

Mukarrama, Tamaraxon

Avlodlari bo'laman

17-o'quvchi: Zaminimning chiroyi hur O'zbekiston,

Quyoshli yurtimning bog'lari bo'ston.

Chiroyi go'yoki rangin kamalak,

Vatanim, 29 yoshing muborak!

18-o'quvchi: Buyuk bobolardan qolgan merossan,

Yuragim ardog'i jarangli sozsan.

Madhingni tinglasin, osmonu falak,

Vatanim, 29 yoshing muborak!

“Mustaqillik abadiy bo'lsin!”

19-o'quvchi: O'zbekiston baxtidan kulsin,

Yurtim doim quvonchga to'lsin,

Ona xalqim istagi shudir,

Mustaqillik abadiy bo'lsin!

20-o'quvchi: Bunga yetmoq oson bo'lmadi,
Yorug' kunlar armon bo'lmadi,
Zimdan turib kimlar kulmadi,
Mustaqillik abadiy bo'lsin!
21-o'quvchi: Millat uchun, shu tuproq uchun,
Butun dunyo bizlarni bilsin,
Bilsin yana o'zbekning kuchin
Mustaqillik abadiy bo'lsin!
22-o'quvchi: Poyijannat onamsiz bizni,
Ayamangiz duoyingizni,
Ota, oching qo'llaringizni,
Mustaqillik abadiy bo'lsin!
23-o'quvchi: Oh, bekafan ketganlar haqqi,
Rohat topmay o'tganlar haqqi,
Eng zo'r bo'lsin shu o'zbek xalqi,
Mustaqillik abadiy bo'lsin!
O'zbekiston muqaddas zamin!
24-o'quvchi: Yashang do'stlar sezib baxt ta'min,
Unutingiz ko'ngilning g'amin,
Baland tuting yurtning bayrog'in,
O'zbekiston muqaddas zamin!
25-o'quvchi: Vatan so'zin anglar bu millat,
Dunyo g'amin tinglar bu millat.
Sozi baland yangrar bu millat,
O'zbekiston muqaddas zamin!
26-o'quvchi: Suvi oltin, tuprog'i oltin,
Qiyosi yo'q mehribon xalqin,
Ko'ring bugun o'zbekning baxtin,
O'zbekiston muqaddas zamin!
27-o'quvchi: So'zlarimni tinglang do'stlarim,
Vatan buyuk bilganim manim,
O'zbek yana ko'tardi qadrin,
O'zbekiston muqaddas zamin!
28-o'quvchi: Shunday ekan nega kuylamay,
Kelajagin nega o'ylamay,
Dovrug'ini dunyoga yo'yuay,
O'zbekiston muqaddas zamin!

1-у Почему мой край так дорог мне?
На вопрос известный я ответил:
Разных стран немало на земле
Родина у всех одна на свете.

2-у На свете много разных стран-
Одна другой милей и краше
А я влюблен в Узбекистан
И в солнце пламенное наше.

2-В С праздником, моя Отчизна,
Мой родной Узбекистан.
Ты сияешь светом жизни,
Расцветай любимый край!

Qasamyod:

1.O`zbekistonimiz mustaqilligini mustahkamlab erkin va yorug' kelajak uchun doimo olg'a yurishga

2.O`quvchi:O`zimizni tomchi va tomchi, zarrama-zarra, buyuk maqsadlar sari charchamay toliqmay safarbar etib borishga,

3.

O`quvchi:ona yurtimizga, milliy istiqlol g`oyalariga sadoqatli bo`lishga, 4.Ajdodlarimizga munosib vorislar bo`lishga

5.O`quvchi:har kuni , har soatda fidoyi bo`lishga

Qasamyod qilamiz, Qasamyod qilamiz, Qasamyod qilamiz!

1-boshlovchi;

Bu aziz vatan barchamizniki. Uning baxt –saodati ,yorug' istiqboli ,farovon kelajagiuchun yashash, kurashish, kerak bo'lsa, jonni fido qilish shu muqaddas

zaminda yashayotgan har bir inson uchun baxtdir.

2-boshlovchi-Toki,yurtimiz go' zal, fayzli, erkin va adolatli yurt bo'lsin. Toki bizdan elga foydali yodgor liklar qolsin, bog'-rog'larimiz qolsin, qalbni poklaydigan ibratli so'zlar qolsin. Toki bizdan olis avlodlarga ozod va obod Vatan qolsin.

11-o`quvchi: Gulbo`ston, nur o`ragan maskan,

Turkiston, gul o`ralgan gulshan,

Mustaqilsan, ey ona tuproq,

Betakrorsan,muqaddas Vatan!

12-o`quvchi: Alpomishning oltin beshigi,

Barchinoyning yangrar qo`shig`i,

Senga ochiq dunyo eshigi,

Betakrorsan,muqaddas Vatan!

13-o`quvchi: Temurday zot tug`ilgan diyor,

Navoiyni qilolding oshkor,

Buxoriyning o`chmas yodi bor,

Betakrorsan,muqaddas Vatan!

14-o`quvchi: Otam kabi navqironsan sen,

Onam kabi mehribonsan sen,

Olam kabi charog`onsan sen,

Betakrorsan,muqaddas Vatan!

15-o`quvchi: Vatan desan yongay yuragim,

Sen orzumsan, sensan tilagim,

Baxtim kabi o`zing keragim,

Betakrorsan,muqaddas Vatan!

16-o`quvchi: Bolang nechun yonadi bugun,

Yolg`onlardan tonadi bugun,

Kelajakning chin baxti uchun,

Betakrorsan,muqaddas Vatan!

1-boshlovchi: Muhtaram mehmonlar, hurmatli ustozlar, aziz o`quvchilar!

Mana shu munavvar kunda barchangizni yana bir bor "Mustaqillik bayrami" bilan chin qalbdan muborakbod etamiz.

2-boshlovchi:Barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad, o`qishlaringizda zafarlar tilab qolamiz.

1-boshlovchi: Vatanimizni, xalqimizni, siz aziz bolajonlarni Yaratganning o`zi yomon ko`zlardan, yomon niyatlardan asrasin.

2-boshlovchi:Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo'lsin! Mustaqilligimiz abadiy bo'lsin!

Samarqand viloyati Jomboy tumani 18-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Baxramova Nilufar.